
BAYRAM TUHFASI: YANGI STOMATOLOGIYA KLINIKASI OCHILDI

Mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan Toshloq tumanida bir qator ijtimoiy soha ob'yektlari foydalanishga topshirilmoqda.

Jumladan, tuman markazida "Second Smile" MCHJga qarashli stomatologiya klinikasini ochilishi tuman aholisi uchun bayramona sovg'a bo'ldi.

Tadbirkor Mahmudjon Azimov tomonidan ushbu tibbiyot muassasasiga 400 million so'mlik tibbiyot jihozlari o'rnatilib, 10 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Natijada bu yerda kattalar uchun stomatologik xizmat ko'rsatish, jarrohlik amaliyotini bajarish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, sektor rahbarlari hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdilar. Ishtirokchilar binoda davolanuvchilar va tibbiyot xodimlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

2023-08-30 11:49:18